

Avvalo o'quvchilarga rangli qog'ozdan nok shaklini yasash vazifasi beriladi. Nok simmetrik bo'lishi uchun rangli qog'oz varag'i ikkiga buklanadi va chizilgan yarim nok konturi bo'ylab qirqib olinadi. Keyin eni taxminan 0,5 cm bo'lgan ikkita rangli qog'oz tasmasidan "prujina-qurtcha" shaklini yasash kerak. Oxirida esa ishni yaproqchalar bilan bezab, yasalgan qurtchalarni mahkamlash lozim.

Ish mustaqil ravishda bajariladi. Zarur bo'lganda, o'qituvchi yordam beradi.

#### **5. Yakunlash va o'z-o'zini tahlil qilish (5 daqiqa).**

Dars yakuni zanjirli so'rov orqali chiqariladi. O'quvchilar navbatma-navbat bitta gapda darsda nimani o'rganganlarini, nima qiziqarli bo'lganini va qaysi jihatlar qiyinchilik tug'dirganini aytib berishadi.

#### **Kutilayotgan natijalar:**

– "prujina" shaklida buklangan qismlar bilan hajmli applikatsiya bajarish.

### **13-DARS. PRUJINALI QO'L MEHNAT BUYUMLARI**

#### **Dars maqsadlari:**

- qog'oz bo'laklarini "prujina" usulida taxlash usulini mustahkamlash;
- o'quvchilarning ijodiy qobiliyatlarini rivojlantirish.

**Kerakli materiallar:** rangli qog'oz, qaychi, yelim, qalam, chizg'ich, darslik, buyum namunasi.

#### **1. Tashkiliy qism (2-3 daqiqa).**

O'qituvchi o'quvchilar bilan salomlashadi. Davomat va darsga tayyorgarlikni tekshiradi.

#### **2. Dars mavzusini e'lon qilish. Dars mavzusiga kirish (2-3 daqiqa).**

O'qituvchi savollar beradi:

1. O'tgan darsda nimalar qildingiz?
2. Qog'oz bo'laklarini buklashning qanday yangi usulini o'rgandingiz?

#### **3. Namuna tahlili (5 daqiqa).**

*O'quvchilar darslikda taqdim etilgan yasama mahsulotlarning o'zlariga yoqqan variantini tanlashlari yoki o'zlarining original ishlarini o'ylab topishlari*

*mumkin. “O’rgimchak” va “Sakkizoyoq” yasama mahsulotlarini juft-juft bo’lib, “Ilon” va “Quyov” yasama mahsulotlarini esa yakka tartibda bajarish tavsiya etiladi. O’qituvchi ishni boshlashdan avval reja tuzish va barcha kerakli materiallar hamda asboblarni tayyorlash zarurligini eslatadi.*

#### **4. Amaliy qism (25 daqiqa).**

Ish mustaqil ravishda bajariladi. Zarur bo’lganda, o’qituvchi yordam beradi.

#### **5. Yakunlash va o’z-o’zini tahlil qilish (5 daqiqa).**

Darsni suhbat orqali yakunlash tavsiya etiladi. Quyidagi savollar namuna bo’lishi mumkin:

1. Bugungi darsda qanday yangi ma’lumotlarni o’rgandingiz?
2. O’z ishingizni nimadan tayyorladingiz?
3. “Prujina” shaklidagi tasma (bo’lak)dan yana nimalar yasash mumkin?

#### **Kutilayotgan natijalar:**

- o’quvchilarni ko’zlangan natijaga erishish uchun o’z faoliyatini mustaqil ravishda rejalashtirish va amalga oshirishga o’rgatish;
- o’quvchilarda qo’l mehnati yordamida ijodiy g’oyalarni ro’yobga chiqarish qobiliyatini rivojlantirish.

## **14-DARS. SHOVQINLI NINACHI**

#### **Dars maqsadlari:**

- o’quvchilarning dunyoqarashini kengaytirish;
- hajmli applikasiya yaratish uchun qog’ozdan shakllarni qirqish, kesish, bukish va yopishtirish texnikasi haqidagi tushunchalarni chuqurlashtirish;
- qo’lbola qog’oz konstruktordan foydalanishni va hajmli shakllar yasashni o’rgatish.

**Kerakli materiallar:** rangli qog’oz, qaychi, yelim, qalam, chizg’ich, darslik, buyum namunasi.

#### **1. Tashkiliy qism (2-3 daqiqa).**

O’qituvchi o’quvchilar bilan salomlashadi. Davomat va darsga tayyorgarlikni tekshiradi.